



<https://interscience.uz/>

ISSN 2181-1709 (P)

ISSN 2181-1717 (E)

SJIF: 3.805 (2021)

2023/7

**TA'LIM VA
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№7/2023

IYUL-2

Muassis: Buxoro davlat universiteti Fan va ta'lim MChJ	13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshullayevich	Abdullayeva Sh. S. O'yin texnologiyalari oliy kasb-ta'limni modernizatsiya shartlarida loyihaligi ta'lim elementi sifatida	7
Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori	Atayeva G. I. Oliy ta'limning o'quv jarayonini raqamlashtirish	12
Tahririyat kengashi raisi: Maxmudov Mels Hasanovich	Avulxairov F. O'. Oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish borasidagi sharq allomalarining qarashlari	17
Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna	Alimova M. A. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	22
Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich	Azimova F. X. Neft-gaz sanoatiga oid terminlar tipologiyasi o'qitish jarayonida	26
Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q. Murtazoyev ko'chasi, 16-uy	Azimova N. S. Teaching foreign languages using innovative interactive methods in the lessons	34
Telefon: +998(90)744-00-22	Azimova M. B. Tasviriy san'at o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish	39
E-mail: eirjurnal2020@gmail.com	Aytmuratov B. T. Ummumta'lim maktablariida "Xalq xunarmandchiligi" mashg'ulotlarining zamonaaviy ta'lim texnologiyalari asosida amalga oshirilib	42
Jurnalning elektron sayti: www.interscience.uz	Atamuradov J. J. Ixtisoslashtirilgan sport maktablariida masofaviy ta'lim elementlaridan foydalanish	50
Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar royxatiga kiritilgan	Axmedov M. U. Ta'lim sifati va ta'lim sifati menejmentiga zamonaaviy endashuvlar	55
Bosishga ruxsat etildi: 28.06.2023 y. Qo'g'oz bichimi 60x84 1/8. b/t. 12,5. Buyurtma raqami 1.23 «FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar	Axmedov F. Sh. Sport murabbiylari tayyorlash bo'yicha xorij tajribasi	62
Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan	Botirov H. X. Maktablarning raqobatbardoshligini ta'minlaydigan omil sifatida ta'lim sifatining o'rni	71
Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi	Botirova X. T. O'zbek xalq cholg'u ijrochilik san'ati vositasida o'quvchi - yoshlarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash tizimini rivojlantirish mazmuni.	76
«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatining roziligi bilan amalga oshiriladi	Djabbarova D. G. Ingliz tili darslarida o'yin texnikalari	82
Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir	Djumanazarova Z. K. Bo'lajak iqtisodiyot fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish	87
	Ergasheva M. T. Tabiiy fanlarni xalqaro baholash dasturi talablari asosida y'kitishning innovatsion metodlari	91

Gafurova M.Yu. Azimova A.Sh. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish metodikasi	96
G'ofurov A. U. Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	100
Hoshimov I. Tarixiy-madaniy milliy merosdan foydalanish – umumiy o'rta maktab ta'limi tizimidagi ta'lim omili sifatida	107
Ibragimova Sh. O. Sinergetik yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga nisbatan masuliyatli munosabatini rivojlantirish	112
Islamov S. M. Issues of education of work on yourself and independent activity	118
Izbullayeva G. V. Didaktik asarlarda ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash mohiyati	122
Jo'rayev V. Ijtimoiy-madaniy tadbirlar maydonida boshqaruv xodimlarning yetakchiligini shakllantirishning konseptual tahlili	135
Kaxarova G. S. Xalq qo'shiqlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish texnologiyalari	143
Mahmudova Ch. I. Talabalarda geografik obyekt va joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasini rivojlantirishda ajdodlar ilmiy merosidan foydalanishning zarurati	147
Маманазарова Н. К. Таълим муассаса рақобатбардошлигини оширишда таълим хизматлари сифатининг аҳамияти	152
Mo'minov F. I. Blokli-modul asosida yosh futbolchilar mashg'ulot jarayonlarini rejalashtirish	160
Muratova S.A. O'quvchilarning musiqiy-adabiy didini rivojlantirishda tadbirlarning o'rni	166
Musayeva U. R. O'quvchilarning kasbiy kompetentligini baholashni tadqiq qilishning nazariy asoslari	172
Мирзаева Ш. Р. Исследование взаимосвязи эмоционального интеллекта с копинг-стратегиями у студентов-медиков	177
Norqulova D. U. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari	188
Nuradilova A. D. Didaktik o'yinlarning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilimini mustahkamlashga ta'sirini	193
Nurullayev A.R., Azimova A.Sh. Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	198
Nurulloyev L. L. 3- sinf qiz bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari dinamikasi	203
Nazarov T. T. Talabalarning didaktik jarayonlarini loyihalash qonuniyatlari	210
Nazarov T.T., Uzoqov A. M. Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi subektlarining didaktik jarayonlarini loyihalashda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati	218
Pirnazarov S. M., Urazbaev D. S. Qoraqalpoq teatrining shakllanib rivojlanishida chet va milliy dramaturgiyamizning sintezlashuvi	227
Qosimova N. S. Talim tizimida talabalarning intellektual va shaxs sifatida rivojlanishini aniqlashda tizimlashtirilgan psixologik testlar	233

Qurbonov J. A. Ijtimoiy-gumanitar yo‘nalish bo‘lajak o‘qituvchilarining intellektual madaniyatini rivojlantirishning pedagogik jihatlari	240
Rajabov T. I. O‘zbek musiqa folklorini o‘rgatish jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari	247
Raximova M. N. Fortepiano asarlarida ijrochilik mahoratini oshirishda texnik uslublardan foydalanish	256
Ro‘ziev R. R. Yong‘in xavfsizligi fanida masofaviy o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirish	259
Ro‘ziyeva D. S. Kontekst o‘qitish texnologiyasi asosida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari	266
Rustamova N. R. Principles of vitagenic education for adults	272
Suvonov Q. Y. Sohibqiron amir temurning jangovorlik faoliyatida harbiy va jismoniy mashqlar uyg‘unligi	276
Turaboyeva K. E. O‘yin oliy ta‘limda interfaol ta‘lim uslubi sifatida	279
Turayev X. A. “Ubiquitous learning” ta‘lim texnologiyasi asosida chizmachilik darslarini tashkilga oid metodik tavsiyalar	288
Umaraliyeva M. Umumiy o‘rta ta‘lim o‘qituvchilarining inklyuziv kompetentligini rivojlantirish tamoyillari	296
Khaydarov Kh. F. Impact of the internet technologies of virtual reality on the educational process	302
Xusnidinova N. A. Solidworks dasturi va uning imkoniyatlaridan chizma geometriya darslarida foydalanishning afzalliklari	306
Хусанов Б. Оилаларда ўсмир ёшларни ижтимоий-маънавий тарбиялашнинг ижтимоий-сиёсий асослари ва методологияси	311
Ziyayeva X. I. O‘zga tilli guruhlarda izchil rus nutqida keys shakllaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik va pedagogik asoslari	316
Шокирова М., Рахимов Д. Использование игр для продвижения иностранного языка и развития коммуникативных навыков	321
Baybayeva M. X., Burxanov B. B. Turkiston o‘lkasida mutolaa madaniyatini yuksaltirishda jadid ma‘rifatparvarlarining sa‘y-harakatlari	329
Jo‘rayeva D. Yu. Biologiya o‘qitish metodikasi fanidan mustaqil ta‘limni tashkil etishdagi muammoning yechimi- bulutli texnologiyalardan foydalanish	335
Тожибоев М. М. Значения подвижных игр в режиме дня старшего дошкольного возраста	344
Abdusamatov J. Q. Pedagogning metodik tayyorgarligi va ijodkorligi innovatsion klasterni samarali rejalashtirishning omili sifatida	349
Ахрарова Т. А. Классификация видов самостоятельных работ на уроках математики в начальных классах.	352
Кульжанов Н. Ж. Обучение информатике через программный комплекс	357
Кодиров С. П. Некоторые вопросы выполнения не лабораторных работ из физики	360
Aytbayev D.T., Imanberdieva S.K., Egenberdi M. E. Verbal biotyponyms based on the names of pets	365

vazifalar – topishmoqlar, boshqotirmalar kiradi.

Har qanday o'yindan foydalanganda quyidagi fikrlarni unutmaslik kerak: maktabda turli o'yinlar o'ynagan bola ijodkorlikka tayyor bo'lishi; o'yin va uning turi bilan mazmuni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos bo'lishi; yorqin ko'rgazmalik o'yinni talab darajasida o'tkazishga yordam berishi hamda o'yinning qiziqarli materiali mavzu bilan chambarchas bog'liq bo'lishi.

O'yin tushunchasini tushuntiradigan bo'lsak – inson xatti-harakatlarini nazorat qilish bilan belgilanadigan ijtimoiy tajribani shakllantirish uchun vaziyatlarga asoslangan harakat turidir. Insoniyat tajribasida o'yin faoliyati quyidagi funktsiyalarni bajaradi: o'yin-kulgi; kommunikativlik yoki muloqot qilish; diagnostik (o'yin davomida o'z-o'zini anglash); tuzatuvchi (o'z-o'zini tuzatish); ijtimoiylashuv.

O'yinlarning ko'p turlari mavjud. Ulardan boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan: o'yin–dars, o'yin–mashq, tetiklantiruvchi o'yinlar, didaktik maqsaddagi o'yinlar, so'z (lug'at) o'yinlari, mantiqiy o'yinlar va boshqalar. Bunday o'yinlar o'quvchini har tomonlama rivojlantirib, bilimlarni to'la o'zlashtirishga yordam beradi. O'quv jarayonida keng qo'llaniladigan o'yinlarning yana bir turi – rivojlan-tiruvchi o'yinlardir.

Rivojlantiruvchi o'yinlarning ahamiyati o'quvchilarning ishtiyoqini hisobga olgan holda o'quv jarayonini qiziqarli qilish, bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Rivojlantiruvchi o'yinlarga qo'yiladigan birinchi talab – o'quv-chining bilish faolligini, qiziqishini rivojlantirish. Ushbu talablar quyidagi savol-larga javob beradi:

- a) bolalarga o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini berish;
- b) bolani boshqalar bilan raqobatlasha olishga o'rgatish;
- b) ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun bilimlarni shaxsan o'zlari izlashni ta'minlash;
- v) o'yin davomida bola uchun yangi bilim, malaka va ko'nikmalarga erishish;
- d) bolaning o'yin davomida erishgan g'alabasi (natijasi), uning yangi olgan bilimlari, malaka va ko'nikmalarini bilan mos kelishida.

Rivojlantiruvchi o'yinlar orasida o'quvchilarning o'zlari o'z qo'llari bilan yasab, yig'ishi mumkin bo'lgan o'yinchoqlarini alohida o'rin tutadi. Axir, ular o'yin jarayonida yangi bilimlarga ega bo'lib, ularning tasavvuri, xotirasi, tafakkuri, og'zaki nutqi va turli qobiliyatlari: konstruktiv, musiqiy, tashkiliy va boshqa xususiyatlari rivojlanadi.

Darsni bir xil usullar bilan olib borish o'quvchilarni zeriktirishi aniq, agar o'rtada o'yin aralashsa, o'quvchilar dars mazmuniga katta e'tibor berib, tez qabul qiladi va tez tushunadi. S.A.Shmakovning fikricha, o'yin to'rt xil jihatda xarakterlanadi:

- erkin rivojlanayotgan harakat, bu harakat muayyan natija uchun emas, balki bolaning qoniqishiga bogliq;
- harakatning hissiy jihatdan ko'tarilishi, ya'ni raqobatbardoshlikning o'rin olishi;
- o'yin mazmunini tavsiflovchi tamoyillar.

Yuqorida qayd etilgan belgilar tufayli o'yinning boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimlarini mustahkam o'zlashtirishiga ta'sirini aniqlash uchun biz quyidagi savollarga javob izladik: boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini tashkil etishda o'yin tuzilishi qanday bo'lishi; o'quvchilarining faolligini oshirish uchun o'yinlardan qanday foydalanish kerakligi va o'yin boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlariga ko'ra

qanday foydalanish kerakligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Давыдов В.В. Проблемы развивающего обучения. -М., 1986. <https://ru.wikipedia.org/wiki>;
2. Выготский Л. С. Психология искусства (idem, pdf) /Общ. ред. В.В.Иванова, коммент. Л.С.Выготского и В.В.Иванова, вступит. ст. А.Н.Леонтьева. 3-е изд. М.: Искусство, 1986. 573 с. <https://ru.wikipedia.org/wiki>;
3. Коменский Ян Амос: Учитель учителей («Материнская школа», Великая дидактика» и др. произв. с сокращ.). М.: Карапуз, 2009, 288 с. ISBN 978-5-8403-1480-7. <https://ru.wikipedia.org/wiki>;
4. Ушинский К.Д. Три элемента школы (1857). <https://ru.wikipedia.org/wiki/%>;
5. Сухомлинский В.А. 100 советов учителю. Дата обращения: 5 ноября 2013. Архивировано 5 ноября 2013 года. <https://ru.wikipedia.org/wiki>;
6. Крупская Н.К. Дидактикалық ойындар туралы. <https://bilimger.kz/108232/>;
7. Талызина Н.Ф. «Практикум по педагогической психологии», М., 2002, 2008; <https://ru.wikipedia.org/wiki>;
8. Nuradilova A.D. Boshlang'ich sinflarda ona tili fanini o'qitishda noan'anaviy dars usulining samarali natijalari. Муғаллим ҳам ўзликсиз билимлендириў. №3/2. Nukus. 2022, 10-13-bet;
9. Raximova A.E. Didaktik o'yinlarning turlari va ularni olib borishga doir talablar. <https://cyberleninka.ru/article/n/didaktik-o-yinlarning-turlari-va-ularni-lib-borishga-doir-talablar>;
10. <https://minikar.ru/uz/zdorove-i-krasota/didakticheskie-igry-cto-polezno-delat-v-syuzhetnoi-igre-sobirat/>.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

A.R.Nurullayev

“Sport nazariyasi va metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi. Buxoro davlat universiteti

A.Sh.Azimova

Turkiston Yangi Innovatsiyalar universiteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalash nutq va tafakkurini, dunyoqarashini shakllantirish ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar muhitni o'z ichiga olgan pedagogik jarayonlarga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit s o'zlar: Maktabgacha, bola, jismonan, intellektual, axloq, vosita, pedagog, o'quv, psixolog, tajriba.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ ДОШКОЛЬНИКОВ

A.P.Нуруллаев

Преподаватель кафедры «Теория и методика физической культуры».

Бухарский государственный университет

Азимова А. Ш.

Туркестанский Новый Инновационный университет магистрант

I курса

Аннотация. В статье особое внимание уделяется педагогическим процессам воспитания и обучения, включающим в себя методические материалы и средства, формирование речи и мышления, мировоззрения дошкольников в физических, интеллектуальных и нравственных вопросах.

Ключевые слова: дошкольник, ребенок, физический, интеллектуальный, нравственный, инструмент, педагог, воспитатель, психолог, опыт.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL PRINCIPLES OF DEVELOPMENT OF THE MENTION OF PRESCHOOL CHILDREN

A.R. Nurullayev

Teacher of the «Physical Culture Theory and Methodology» department.

Bukhara State University

A. Sh. Azimova

Turkestan New Innovation University 1st year master's student

Annotation. In the article, special attention is paid to the pedagogical processes of education and training, which include methodological materials and tools, the formation of speech and thinking, worldview of preschool children in physical, intellectual and moral issues.

Key words: Preschool, child, physical, intellectual, moral, tool, pedagogue, educational, psychologist, experience.

Bola uchun ilk ustozlar uning ota-onasi hisoblanadi. Ular bolalarni go'dakligidan jismonan, intellektual va axloq masalalarida tarbiyalashlari, nutq va tafakkurini, dunyoqarashini shakllantirib borishlari lozim. Shuningdek,

bolalarning nutq va tafakkurini rivojlantishda, ta'lim va tarbiyaning metodik materiallar va vositalar bilan ta'minlanganligini, kun tartibini, tadbirlar, bayramlar, rivojlantiruvchi muhitni o'z ichiga olgan pedagogik jarayonlarga alohida e'tibor beriladi. Biz maktabgacha yoshdagi bolalarni pedagogik-psixologik tomonidan rivojlantirishimiz uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil etamiz.

Rossiyadagi maktabgacha ta'lim tizimi doimo o'zgaruvchan holatda bo'lib, u muntazam ravishda yangilanadi, ko'rinishini o'zgartiradi va mukammallashib boradi.

Rossiyaning maktabgacha ta'lim tizimi "O'quv jarayonni modernizatsiyasi Konsepsiyasi"ga asoslangan. Nazariy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, maktabgacha ta'lim mazmunini to'ldirishga stereotip yondashishlarni o'zgartirish kerak, ta'lim berish jarayoni esa quyidagi tamoyillar ketma-ketligi asosida ko'rilishi lozim:

- o'qitishning rivojlantiruvchi xarakteri asosida o'qitishni olib borish bolalarning yashirin va salohiyatli xislatlarini namoyon qiladi;
- tizimli ta'lim bolalarga hodisalar, o'rganilayotgan ob'ektlar va hayotiy qadriyatlarining o'zaro bog'liqligini aniqlashga yordam beradi;
- bolaning rivojlanishi uning his-tuyg'ulari va yoshiga mos bilim olishning ratsional shakllariga tayanadi;

Noyob madaniyat va an'analar davlati hisoblangan Buyuk Britaniyaning ingliz ta'lim berish tizimi dunyodagi eng yaxshi tizimlardan biri sifatida tan olingan. Alohida e'tirof etish joizki, Britaniya ta'lim dasturlari eng yuqori standartlarga mos keladi.

Buyuk Britaniyada odatda ta'lim berish o'rganilayotgan predmet yoki o'qituvchiga emas, balki bolaga yo'naltiriladi. Bunday yondashuv ingliz ta'limi tarixiga asoslanib, uning rivojiga Russo, Frebel, Montessori ta'sir ko'rsatganlar. Ular bolaning individualligini rivojlantirish va mustaqilligini himoya qilish kerak, deb hisoblaganlar. Maktabgacha tarbiyaning asosiy maqsadlari: har bir bolaning ehtiyoji va uning manfaatlarini qondirish, bolalar o'rtasidagi farqni hurmat qilish. Bunda bola o'qish uchun ichki intilishga ega, qiziquvchan va tabiatan serg'ayrat, deb taxmin qilinadi. O'qitish bolaning o'zi taklif qilgan o'yin davomida olib borilishi kerak. Ustozning asosiy vazifasi bolaga uqtirish yo'li bilan emas, balki o'yinni qo'llab turish, unga tadqiqot o'tkazish uchun turli materiallar taqdim etishdan iborat.

Ingliz bolalar bog'chasida bolalar uzoq muddat mustaqil shug'ullanadilar, tarbiyachi esa ularni chetdan kuzatib boradi. Umumiy vaqtning faqat 15 % pedagog rahbarligida guruh ko'rinishda o'qitishga ajratiladi. Bunday o'qitish rivojlanish darajasi bir-biriga teng bolalardan tuzilgan kichik guruhlarda o'tkaziladi. Shu yo'l bilan maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishini inobatga olish qoidasi amalda qo'llaniladi.

Buyuk Britaniyada tarbiyachilar bolalar nutqini o'stirish, tafakkurni rivojlantirish, ruhiy va ismoniy shakllanish darajasi diagnostikasi uchun mazmuniy-rolli o'yinlar, rasm chizish va narsalar yasash usulidan foydalanish kerak, deb hisoblaydilar. Amalda ingliz bolalar bog'chalarida (amaldagi til va matematika bo'yicha majburiy mashg'ulotlardan tashqari) suv, qum bilan o'yinlar va harakatli o'yinlar orqali tadqiqot faoliyatiga katta ahamiyat beradilar. Mazmuniy-rolli o'yinlarga pedagoglarda deyarli vaqt qolmaydi. Masalan, nutq o'stirish borasida gap ketganda besh yoshli bolalar quyidagilarni bilishlari kerak:

- so'z boshi va oxiridagi tovushlarni aniqlash;
- tovush va harflarni ajrata bilish;
- alifbodagi hamma harflarni aytish;

- oddiy soʻzlar va gapni oʻqish;
- oʻz ismini yozish;
- oddiy soʻzlarni yozishda fonetika bilimlaridan foydalanish.

Oʻrganishlarimiz shuni koʻrsatdiki, bunday maqsadlar yuqori texnologiyali dasturlar yaratilishiga olib keladi. Koʻrinib turibdiki, Buyuk Britaniyada bolalarning mustaqil, erkin fikrlashlariga koʻproq ahamiyat qaratilgan, shuningdek ularda har bir mashgʻulot uchun nafaqat pedagog tomonidan aniq harakatlar ketma-ketligi, balki olinadigan natijalar ham bayon etilgan.

Darhaqiqat, bugungi kunda maktabgacha taʼlim mazmunini takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar, xorijiy tajribalarni oʻrganish zahirida pedagog xodimlarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy taʼlim va innovatsion texnologiyalar, ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻzlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, koʻnikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Chunki maktabgacha taʼlim tizimi oldida turgan kechiktirib boʻlmaydigan oʻta muhim va dolzarb muammolar taʼlim mazmunini takomillashtirishning didaktik shart-sharoitlarini ishlab chiqishni va taʼlim jarayoniga kreativ yondashishni taqozo qiladi.

Janubiy Koreya maktabgacha taʼlim tizimida, asosan, bolalarning boshlangʻich, har tomonlama rivojlantiruvchi koʻnikmalarni shakllantirishga eʼtibor qaratadilar. Bolalar uch yoshdan boshlab, koreys va ingliz tillarida oʻqish va yozishni oʻrgana boslaydilar. Shu yoshdan boshlab matematika sir-asrorlarini kashf qiladilar. Koreyslar bolalarning jismonan sogʻlom va baquvvatligiga, shuningdek, musiqa saboqlarining oʻzlashtirilishiga alohida eʼtibor qaratadilar. Maktabgacha taʼlim tashkilotlaridan boshlab bolalarga juda ham katta hajmda uy vazifalari beriladi, ingliz tili mashgʻulotlarida alohida soʻz va jummalarni tarjima qilishdan tashqari oʻz fikr va qarashlarini sodda hamda ravon tilda ifodalashga yoʻnaltiriladilar. Janubiy Koreya maktabgacha taʼlim tizimi hozirgi kunda Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tizimini rivojlantirish uchun toʻla-toʻkis xizmat qilib kelmoqda.

Germaniyada maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish jarayonigajiddiymunosabatdaboʻlinadi. Oʻquv materiallaribilantaʼminlanganlik, taʼlim uchun shart-sharoitlarning mavjudligi tufayli til muhiti, tarbiyachining pedagogik mahorati, ijtimoiy muhit, tarbiyalanuvchilar uchun toʻliq psixologik iqlim yaratilgan. Germaniyada Waldkindergarten (nemischa Wald soʻzidan – oʻrmon, Kindergarten – bolalar bogʻchasi), Bauernhofkindergarten (nemischa Bauernhof soʻzidan – dehqon hovlisi, qoʻrgʻoni;) Kindergarten –bolalar bogʻchalari yuqori reytingga ega. Aytish joizki, mazkur bogʻchalarda nutq oʻstirish jarayoniga alohida eʼtibor qaratiladi, Germaniyada rus nemis bogʻchalari faoliyat yuritadi. Mazkur bogʻchalarda Rossiya dasturi asosida ish koʻriladi. “Kasb” loyihasi davrida bolalar tarbiyachi bilan ekskursiyalarga boradilar, turli narsalar yasaydilar, teatrlashtirilgan sahnalar qoʻyadilar, turli cirnklar ayyorlash jarayonlarida ishtiraketadilar, loydan narsalar yasaydilar va hokazo. Bolalar stulchalarda oʻtirib tarbiyachini eshitadigan turdagi mashgʻulotlar yoʻq. Bolalarga koʻp erkinlik beriladi. Ular istagan narsani qilishlari, kiyimlarini iflos qilishlari, butun maydonda sakrashlari va yugurishlari mumkin.

Yaponiyada bolalarni tarbiyalash metodi toʻgʻrisida quyidagi keng tarqalgan iborani keltiriladi. Bilingval oʻqitish – taʼlim jarayonini bir necha tilda olib borishga koʻproq ahamiyat beriladi. Bolalar bogʻchalarining ochilishidan maqsad bolalarning aqlan va jismonan rivojlanishiga yordam beradigan oʻzaro munosabatda boʻlish muhitini yaratish, tafakkurini boyitishdan iborat boʻlgan.

Albatta bola tarbiyasida onaning roli turlicha, lekin bolalarning o'z tengdoshlari, tarbiyachi bilan muloqoti, birga o'ynashi va birgalikda mehnat qilishi uy sharoitida erishib bo'lmaydigan natijalarga, ya'ni uning sog'lom va garmonik rivojlanishiga imkoniyat beradi.

Bolalar bog'chalarida ota-onalarni tarbiyaga jalb qilish jarayoni o'ta yuqori darajada. Ertalab vaqtli bolalarni bog'chaga tashlab ketib kechqurun olib ketadigan bizning ota-onalar uchun Yaponiya bolalar bog'chalaridagi tartibga ko'nikish juda qiyin, chunki u yerda bola tarbiyasida ota-onaning muntazam qatnashishi va faol ishtiroki talab qilinadi. Bolalar bog'chada ota-onalarsiz ikki soat, uzog'i bilan to'rt soat bo'lishlari mumkin. Bu jarayonda nafaqat bolalar, balki ota-onalar ham tarbiyalanadilar.

Yaponiya bolalar bog'chalarida ta'lim dasturlari ham inobatga olingan, yozish va o'qishdan tashqari bolalarga qo'shiq aytish o'rgatiladi, sport musobaqalari o'tkazilib, muntazam sayrlarga chiqib turiladi. Ammo bular bilan bir qatorda bu tadbirlarni o'tkazilishidan maqsad - bolada xamjihatlik, jamoada yashash hislarini rivojlantirishdan iborat. Qo'shiq aytilsa, xor (jamoada) aytilishi kerak, yakkaxon qo'shiqchi qo'llanilmaydi, musobaqa o'tkazilayotganda yoki hamma yoki guruh g'oliblikka erishiladi, va mutlaqo yakka g'olib emas.

Jamoa bilan muntazam ravishda bir kunlik sayrga chiqishdan maqsad bolani jismoniy chidamlikka o'rgatish va o'zi atrofidagi hududni o'rganish. Yapon bolalari tabiatni juda sevadilar va chuqur his etadilar. Balkim, aynan shuning uchun ham Yaponiyada turli daraxtlar, tabiat hodisalariga bag'ishlangan milliy bayram va festivallar ko'p bo'lsa kerak. Yoshlikdan go'zallikni sevishni va tabiatni his etishni o'rgatilgan yapon bolalar bu tuyg'ular bilan hayot davomda yashaydilar.

Kuzatuv va tahlillarimiz asosida aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish, uzluksizligini ta'minlashda innovatsion pedagogik kommunikativ texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Aytish o'rinliki xorijiy mamlakatlar tajribasida bolalarning mustaqil ijodiy faoliyatlarini tashkil etish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan, shuningdek ota onalarning bolalar bilan ishlash soati ham ancha vaqtni tashkil etadi. Biroq "Ilk qadam" dasturida o'yinli ta'lim faoliyati kamida 43%, kommunikativ mustaqil faoliyat, ochiq havoda bo'lish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish (sanitariya-gigiena ko'nikmalari) 49%, ota-onalarning bolalar rivoji taraqqiyoti to'g'risida xabardor qilish 8% ni tashkil etiladi".

Yuqoridagi fikrlarimiz mantiqiy davomi sifatida aytishimiz mumkinki, bolalarning aksariyat vaqtlari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tar ekan, demak barcha mashg'ulotlar xususan: atrofdagi olam bilan tanishish, nutqni rivojlantirish, jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish, savodxonlikka o'rgatish, badiiy adabiyot sirlarini chuqur egallash zahirida bola o'zi eshitgan, ko'rgan, idrok qilgan, sezgan, tasavvur etgan narsa va hodisalarning to'g'riligi, aniqligi hamda borliqqa munosabatni anglay boradi.

Bilamizki, tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat, bunda narsa va hodisalarning eng murakkab xususyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi. Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud bo'ladi, ya'ni fikr ma'naviy hodisadir.

Foyalanilgan adabiyotlar

1. Хуторской А.В. Компетентностный подход в обучении. Научно-